

**“O‘zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika
markazi” davlat unitar korxonasi Odob-axloq, mehnat nizosi
va korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi to‘g‘risidagi
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. O‘zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika “O‘zTTBRM” DUK davlat unitar korxonasining Odob-axloq, mehnat nizosi va korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi (keyingi o‘rinlarda – “Komissiya”) “O‘zTTBRM” DUK markaziy apparati va bo‘limlari xodimlari (keyingi o‘rinlarda – “xodim”) tomonidan O‘zbekiston Respublikasi soha xodimlarining odob-axloq qoidalari (keyingi o‘rinlarda – Odob-axloq qoidalari deb yuritiladi) buzilishi bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqish uchun tuziladi.

2. “O‘zTTBRM” DUK rahbari buyrug‘iga asosan tuziladigan Odob-axloq, mehnat nizosi va korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyalari “O‘zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika markazi” davlat unitar korxonasining Odob-axloq, mehnat nizosi va korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasiga hisobdor hisoblanadi.

“O‘zTTBRM” DUK Odob-axloq, mehnat nizosi va korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasining faoliyat yuritish tartibi direktor tomonidan belgilanadi.

3. Komissiya faoliyati O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining (keyingi o‘rinlarda – Vazirlik) qarorlari va farmoyishlariga, shuningdek “O‘zTTBRM” DUK hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

4. Komissiya, komissiya raisi va a‘zolarini qo‘shganda kamida yetti kishidan (toq sondan) iborat tarkibda tuziladi. Bunda, Komissiya ushbu Nizomning ilovasiga muvofiq tarkibda lavozimi bo‘yicha shakllantiriladi va doimiy ravishda faoliyat yuritadi.

Komissiya tarkibiga komissiya tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvi ehtimolini nazarda tutgan holda o‘zgartirish kiritiladi.

“O‘zTTBRM” DUK Kadrlar bo‘limi Komissiya ishchi organi hisoblanadi.

2-bob. Komissiyaning asosiy vazifalari va funksiyalari

5. Komissiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

“O‘zTTBRM” DUK xodimlari tomonidan Odob-axloq qoidalari, Ichki mehnat tartibi qoidalari va Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga rioya etilishi masalalarini ko‘rib chiqish, xizmat tekshiruvlarini o‘tkazish;

“O‘zTTBRM” DUK xodimlari o‘rtasida axloq normalariga zid bo‘lgan xatti-harakatlarning oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

jismoniy va yuridik shaxslarning “O‘zTTBRM” DUK xodimlarining xatti-harakatlariga doir murojaatlarini ko‘rib chiqish;

“O‘zTTBRM” DUK xodimlarining sha‘ni va qadr-qimmatini himoya qilish bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqish;

“O‘zTTBRM” DUK xodimlarining Odob-axloq qoidalari, Ichki mehnat tartibi qoidalari va Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

“O‘zTTBRM” DUK xodimlari tomonidan Odob-axloq qoidalari, Ichki mehnat tartibi qoidalari va Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga rioya etilishi holatini tahlil qilish, natijalari haqida “O‘zTTBRM” DUK rahbariyati va jamoatchilikni xabardor qilib borish.

6. Komissiya o‘z vakolatlari doirasida:

“O‘zTTBRM” DUK xodimlari tomonidan Odob-axloq qoidalari, Ichki mehnat tartibi qoidalari va Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

“O‘zTTBRM” DUK xodimlari tomonidan Odob-axloq qoidalari, Ichki mehnat tartibi qoidalari va Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatining buzilishi bilan bog‘liq masalalar yuzasidan xulosalar tayyorlaydi;

“O‘zTTBRM” DUK xodimlarining Odob-axloq qoidalari, Ichki mehnat tartibi qoidalari va Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati bilan bog‘liq masalalarini ko‘rib chiqish jarayonida zarur axborotni so‘rab oladi;

ko‘rib chiqish uchun kiritilgan masalalarni hal etish uchun Komissiya majlislariga ekspertlar va mutaxassislarini jalb qiladi;

Odob-axloq qoidalari, Ichki mehnat tartibi qoidalari va Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga oid masalalar yuzasidan “O‘zTTBRM” DUK xodimlariga tegishli maslahat va tushuntirishlar beradi;

zarur hollarda, Komissiyada ko‘rib chiqilgan masalalar bo‘yicha “O‘zTTBRM” DUK xodimini intizomiy javobgarlikka tortish yuzasidan “O‘zTTBRM” DUK rahbariyatiga taklif kiritadi.

7. Komissiya “O‘zTTBRM” DUKning tarkibiy bo‘linmalari, boshqa davlat organlari va tashkilotlari, mansabdor shaxslari va jamoatchilik bilan hamkorlik qiladi.

8. Komissiya faoliyatini tashkil qilish va "O'zTTBRM" DUK xodimlari tomonidan Odobaxloq qoidalari, Ichki mehnat tartibi qoidalari va Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatining buzilishi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqadi.

3-bob. Komissiya faoliyatini tashkil etish

7. Komissiya majlislari Odob-axloq qoidalarining buzilishi bilan bog'liq masalalar yuzasidan xodimga nisbatan o'tkazilgan xizmat tekshiruv xulosalari taqdim etilgandan so'ng, uzog'i bilan bir ish kuni muddatida, Komissiya vakolatiga bog'liq boshqa masalalar bo'yicha zaruratga ko'ra o'tkaziladi. Zarur bo'lgan hollarda Komissiya yopiq majlis o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

8. Komissiya majlisini Komissiya raisi, u yo'qligida esa, uning topshirig'iga binoan Komissiya a'zolaridan biri olib boradi. Komissiya majlisida bayonnoma yuritiladi, uni raislik qiluvchi va majlis kotibi imzolaydi.

9. Komissiya majlislari, agar ularda Komissiya a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lsa, vakolatli hisoblanadi.

10. Komissiyaga Odob-axloq qoidalari buzilishi haqidagi materiallar kelib tushgandan so'ng Komissiya raisi uning a'zolarini majlis o'tkazilishi haqida xabardor qiladi.

11. Komissiyaning qarorlari majlisda qatnashgan Komissiya a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan hollarda Komissiya raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi.

Komissiyaning qarorlari Komissiya raisi tomonidan imzolanadi.

12. Komissiya raisi:

Komissiya ishini tashkil etadi;

Komissiya majlislarini chaqiradi va o'tkazadi;

Komissiya a'zolariga topshiriqlar beradi;

boshqa organlar, mansabdor shaxslar va jamoatchilik bilan munosabatlarda Komissiya nomidan ish ko'radi;

zarurat bo'lganda "O'zTTBRM" DUK majlislarida Komissiya faoliyati to'g'risidagi axborot bilan so'zga chiqadi;

har yili "O'zTTBRM" DUK direktoriga Komissiya faoliyati to'g'risida hisobot taqdim etadi.

13. Komissiya kotibi:

Komissiyaning faoliyatini tashkiliy-texnik jihatdan ta'minlash masalalarini hal qiladi;

Komissiyaning navbatdagi majlisiga barcha zarur materiallar o'z vaqtida tayyorlanishini ta'minlaydi, Vazirlik xodimlaridan zarur hujjatlar va ma'lumotlarni so'rab oladi;

kun tartibiga muvofiq Komissiya majlislari o'tkazilishini tashkil etadi;

Komissiyaning a'zolarini va taklif etilgan shaxslarni Komissiya majlisi o'tkaziladigan joy, sana va vaqt hamda kun tartibiga kiritilgan masalalar haqida xabardor qiladi;

Komissiya majlisining bayonnomasini rasmiylashtiradi va tasdiqlangan bayonnomaning manfaatdor shaxslarga jo'natilishini ta'minlaydi.

14. Komissiya a'zosi:

Komissiya tomonidan ko'rib chiqiladigan barcha masalalar bo'yicha ovoz berishga;

Komissiyaning ko'rib chiqishi uchun masalalar va takliflar kiritishga;

Odob-axloq qoidalarini takomillashtirish yuzasidan takliflar, xodimlar o'rtasida qoidabuzarliklarning oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqishda, muhokamasida, qabul qilinishida, shuningdek, ularning amalga oshirilishini tashkil etish hamda bajarilishini nazorat qilishda ishtirok etishga;

ko'rib chiqilayotgan masalaga doir hujjatlar, ma'lumotnomalar va boshqa zarur axborot bilan tanishib chiqishga;

15. Komissiya qaroriga rozi bo'lmagan taqdirda o'z fikrini bayon etishga haqli.

16. Komissiya a'zosi Komissiya majlisida hozir bo'lishi va o'ziga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishi shart.

Komissiya a'zosi Komissiya majlisida hozir bo'lish imkoni bo'lmaganda Komissiya raisi yoki ishchi organni oldindan xabardor etishi shart

17. Komissiya a'zosi ushbu Nizomga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4-bob. Odob-axloq qoidalari, ichki mehnat tartibi qoidalarni va Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatining buzilishining oldini olish (profilaktika) choralarni ko'rish

18. Komissiya "O'zTTBRM" DUKning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha mas'ul bo'lgan hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ul bo'lgan xodimlari, shuningdek, Kadrlar bo'limi bilan birgalikda muntazam ravishda "O'zTTBRM" DUK xodimlari tomonidan Odob-axloq qoidalari, Ichki mehnat tartibi qoidalari va Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga rioya etilishi va ular buzilishining oldini olishga qaratilgan quyidagilarni nazarda tutuvchi profilaktik kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiradi:

"O'zTTBRM" DUK direktorining topshirig'iga binoan;

o'tkazilgan xizmat tekshiruvi xulosasiga binoan;

o'z tashabbusi bilan ko'rib chiqish;

"O'zTTBRM" DUK xodimlarida yuksak kasbiy madaniyatni, jamoada sog'lom ma'naviy muhit va ishchan kayfiyatni shakllantirish;

"O'zTTBRM" DUK xodimlarini "halollik vaksinasi" bilan emlash, ya'ni halollikni ularning ongiga singdirish, ma'rifat orqali ularda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish kayfiyatini shakllantirish;

"O'zTTBRM" DUKda taniqli ziyolilar, ijodkorlar, ma'naviyat va ma'rifat sohasining ko'zga ko'ringan namoyondalari, o'z sohasida yuksak natijalarga erishgan mehnat faxriylarini jalb qilgan holda, uchrashuvlar tashkil qilib borish;

“O‘zTTBRM” DUKda xodimlarning kasbiy va boshqaruv ko‘nikmalari o‘shirishni, shuningdek, ularning malakasini doimiy ravishda oshirishni, ular tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etishlarini ta‘minlash maqsadida ularning bilimlari va malakasini doimiy takomillashtirish ishlarini ta‘minlash;

“O‘zTTBRM” DUK xodimlarining iqtisodiy bilimlarini, huquqiy savodxonligini, huquqiy madaniyati va huquqiy ongini, intellektual va ma‘naviy rivojlanishini oshirish maqsadida iqtisodiy va huquqiy o‘qishlar tashkil etish;

yangi ishga qabul qilingan “O‘zTTBRM” DUK xodimlarini Odob-axloq qoidalarini, Ichki mehnat tartibi qoidalarini va Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga qat‘iy rioya qilish borasida stajirovkadan o‘tkazish va ular bilan profilaktik suhbatlar tashkil qilish;

“O‘zTTBRM” DUK xodimlarini malaka oshirish kurslariga, xalqaro seminarlar, konferensiyalar va shu kabi boshqa tadbirlarga yuborish, ular tomonidan o‘z kasbiy darajasi va axloqiy sifatlarini mustaqil oshirishlari uchun shart-sharoit yaratib berish.

19. Komissiya tomonidan masalani qonun hujjatlarida va “O‘zTTBRM” DUK tomonidan ijro intizomi bo‘yicha qabul qilingan idoraviy hujjatlarda belgilangan tartib va muddatlarda ko‘rib chiqiladi.

20. Xodim o‘zining huquqi, sha‘ni va qadr-qimmatini, ishchanlik obro‘sigacha daxl qiladigan asossiz ariza taqdim etilgan taqdirda, qonun hujjatlariga muvofiq xizmat tekshiruvining xulosasi Komissiya tomonidan ko‘rib chiqilishi jarayonida ularni himoya qilishga haqli.

21. Komissiya majlisiga, xodimga intizomiy jazo chorasi qo‘llash yoki uni ogohlantirish bo‘yicha bir to‘xtamga kelish maqsadida xulosa qilishda, o‘ziga nisbatan masala ko‘rib chiqilayotgan xodim, zarur bo‘lgan hollarda (taraflarni yarashtirish imkoniyati bo‘lgan, xodim o‘z xohishi bilan oshkora uzr so‘ragan va boshqa hollarda) murojaat mualliflari, shuningdek, boshqa shaxslar taklif etilishi mumkin.

Komissiya majlisining vaqti va joyi haqida tegishli ravishda xabardor etilgan shaxslarning kelmasligi mazkur masalani ko‘rib chiqish uchun to‘sqinlik qilmaydi.

22. Komissiya majlisida:

kun tartibidagi masala Komissiya raisi tomonidan e‘lon qilinadi;

Odob-axloq qoidalarini buzilganligi to‘g‘risidagi xizmat tekshiruvining xulosasi o‘qib eshittiriladi;

zarur bo‘lgan hollarda Odob-axloq qoidalarini buzilganligi bo‘yicha xizmat tekshiruvini o‘tkazilgan xodim hamda murojaat mualliflari eshutiladi.

23. Xodim Komissiyaga o‘z huquqlari himoyasi uchun materiallar hamda boshqa axborotni taqdim etishga haqli.

24. Xizmat tekshiruvining materiallari bilan tanishib chiqish yakunlari bo‘yicha Komissiya xodimning harakatlarida Odob-axloq qoidalarining buzilishi faktining mavjudligini, xodimga nisbatan intizomiy jazo chorasi turini yoki ogohlantirilishini yoxud Odob-axloq qoidalarini buzilishi faktining mavjud emasligini belgilaydi va tegishli qaror qabul qiladi.

Komissiya qarori bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi hamda majlis kotibi tomonidan imzolanadi va Komissiya raisi tomonidan tasdiqlanadi.

25. "O'zTTBRM" DUKning Odob-axloq qoidalari xodim tomonidan buzilganligi fakti aniqlangan taqdirda, Komissiya:

yo'l qo'yilgan qoida buzilishning xususiyati, qay darajada og'ir ekanligi, shu xatti-harakat sodir etilgan vaziyat, xodimning oldingi ishi va xulq-atvorini hisobga olgan holda xodimga nisbatan kelgusida "O'zTTBRM" DUKning Odob-axloq qoidalarini buzish holatlariga yo'l qo'ymasligi to'g'risida ogohlantirishga;

xodimga nisbatan intizomiy jazo chorasi qo'llash haqida "O'zTTBRM" DUK direktoriga taklif kiritish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

26. Komissiya qabul qilingan qaror haqida o'ziga nisbatan masala ko'rib chiqilgan xodimga va "O'zTTBRM" DUK direktoriga yozma ravishda ma'lum qiladi.

27. Odob-axloq qoidalari, Ichki mehnat tartibi qoidalari va Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati buzilganligi fakti aniqlangan taqdirda Komissiya tomonidan "O'zTTBRM" DUK xodimlariga nisbatan quyidagi axloqiy ta'sir choralari qo'llaniladi:

ogohlantirish;

uzr so'rash yoki rasmiy uzrnoma keltirishni talab qilish;

"O'zTTBRM" DUKning umumiy yig'ilishlarida tanbeh berish.

28. Komissiya "O'zTTBRM" DUK xodimiga nisbatan intizomiy ta'sir chorasini qo'llash uchun "O'zTTBRM" DUK rahbariyatiga taqdimnoma kiritishi mumkin.

29. Komissiya tomonidan quyidagi murojaatlar ko'rib chiqilmaydi:

komissiyada oldin ko'rib chiqilgan murojaat va aynan shu mazmundagi takror murojaatlar;

anonim murojaatlar;

qonunda belgilangan boshqa talablarga muvofiq bo'lmagan murojaatlar.

30. "O'zTTBRM" DUK xodimi tomonidan Odob-axloq qoidalari, Ichki mehnat tartibi qoidalari va Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatining buzilishi haqidagi murojaat uning tashabbuskori tomonidan Komissiya qarori qabul qilinguniga qadar qaytarib olinishi mumkin.

31. Taraflar yarashgan, shuningdek Vazirlik xodimi o'z xohishi bilan murojaatchidan oshkora uzr so'ragan hollarda, unga nisbatan ta'sir choralari qo'llanilmasligi mumkin.

32. Xodim Komissiya qarori ustidan "O'zTTBRM" DUKga shikoyat qilish mumkin. "O'zTTBRM" DUK direktori Komissiya qarorini bekor qilishga va o'z vakolati doirasida boshqa qaror qabul qilishga haqli.